



CULTURE AND ECONOMIC BEHAVIOR: A PHENOMENON OF CORPORATE ETHICS

Yusufjon Avazkhanova

Doctoral student of the philosophy department

National University of Uzbekistan

E-mail: avazxonovyusufbek94@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Culture, moral skill, social structure, rational choice, economic behavior, Weber, Protestant ethics, trust capital, religious tradition, moral norms, economic efficiency, political culture, anthropological analysis.

Received: 07.01.26

Accepted: 08.01.26

Published: 09.01.26

Abstract: This article analyzes the role of culture in shaping human behavior and economic activity from the perspective of interpreting culture not as a rational choice, but as an inherited moral skill. The author demonstrates the relativity of the traditional dichotomy between culture and social structure and substantiates how ethical norms, religious roots, and historical traditions directly influence economic efficiency. The article examines the complex relationship between cultural skills and rationality, the process of religious-moral systems transforming into trust institutions, and the role of culture in the evolution of political and economic systems. The influence of cultural differences in different societies on economic behavior, the effectiveness of institutions, and the formation of political decisions is revealed through examples. The study refutes the one-sided assessment of culture as an "irrational phenomenon" and demonstrates its profound rational essence in societal development.

MADANIYAT VA IQTISODIY XULQ: KORPORATIV ETIKA FENOMENI

Yusufjon Avazxonov

Falsafa kafedrasi tayanch doktoranti

O'zbekiston Milliy universiteti

E-mail: avazxonovyusufbek94@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Madaniyat, axloqiy koʻnikma, ijtimoiy tuzilma, ratsional tanlov, iqtisodiy xulq, Weber, protestant etikasi, ishonch kapitali, diniy anʼana, axloqiy meʼyorlar, iqtisodiy samaradorlik, siyosiy madaniyat, antropologik tahlil.

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniyatning inson xulq-atvori va iqtisodiy faoliyatni shakllantirishdagi oʻrni madaniyatni ratsional tanlov emas, balki meros boʻlib qolgan axloqiy koʻnikma sifatida talqin qilish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Muallif madaniyat va ijtimoiy tuzilma oʻrtasidagi anʼanaviy dichotomiyaning nisbiyligini koʻrsatib, axloqiy meʼyorlar, diniy ildizlar va tarixiy anʼanalar iqtisodiy samaradorlikka qanday bevosita taʼsir koʻrsatishini asoslaydi. Maqolada madaniy koʻnikmalarning ratsionallik bilan murakkab munosabati, diniy axloqiy tizimlarning ishonch institutlariga aylanish jarayoni hamda madaniyatning siyosiy va iqtisodiy tizimlar evolyutsiyasidagi roli yoritiladi. Turli jamiyatlardagi madaniy farqlarning iqtisodiy xulq-atvor, institutlar samaradorligi va siyosiy qarorlar shakllanishiga taʼsiri misollar orqali ochib beriladi. Tadqiqot madaniyatni “irratsional hodisa” sifatida baholash biryoqlamaligini rad etib, uning jamiyat taraqqiyotidagi chuqur ratsional mohiyatini namoyon qiladi.

КУЛЬТУРА И ЭКОНОМИКОЕ ПОВЕДЕНИЕ: ФЕНОМЕН КОРПОРАТИВНОЙ ЭТИКИ

Юсуфжон Авазханова

Докторант кафедры философии

Национальный университет Узбекистана

E-mail: avazxonovyusufbek94@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Культура, моральный навык, социальная структура, рациональный выбор, экономическое поведение, Вебер, протестантская этика, доверительный капитал, религиозная традиция, моральные нормы, экономическая эффективность, политическая культура, антропологический анализ.

Аннотация: В данной статье анализируется роль культуры в формировании человеческого поведения и экономической деятельности с точки зрения интерпретации культуры не как рационального выбора, а как унаследованного морального навыка. Автор показывает относительность традиционной дихотомии между культурой и социальной структурой и обосновывает, как этические нормы, религиозные корни и исторические традиции непосредственно влияют на экономическую эффективность. В статье рассматривается сложная

взаимосвязь культурных навыков с рациональностью, процесс трансформации религиозно-нравственных систем в институты доверия, а также роль культуры в эволюции политических и экономических систем. Влияние культурных различий в разных обществах на экономическое поведение, эффективность институтов и формирование политических решений раскрывается на примерах. Исследование опровергает односторонность оценки культуры как "иррационального явления" и демонстрирует ее глубокую рациональную сущность в развитии общества.

Kirish. Ijtimoiy kapital ya'ni sog'lom iqtisodiyot barpo etishda muhim o'rin tutuvchi, moddiylashgan ishonch o'zining madaniy ildizlariga ega. Mazkur tushuncha mohiyatan ham, amalda ham mutlaqo noratsional hodisa bo'lganligi sababli, uning iqtisodiy samaradorlikka ta'sir ko'rsatishi haqidagi fikr bir qarashda paradoksal tuyulishi mumkin. Darhaqiqat, ilmiy tadqiqot predmeti sifatida madaniyat doimo o'zining tutqich bermas xususiyatini namoyon qiladi. O'zlarini barcha ijtimoiy fan vakillari ichida eng mulohazali deb hisoblaydigan iqtisodchilar odatda "madaniyat" tushunchasiga murojaat qilishni hush ko'rmaydi: uni aniq ta'riflash mushkul, shu bois aniq modelga asos bo'ladigan, masalan, bizga avvaldan tanish bo'lgan "ratsional foyda maksimallasuvi" kabi inson xulq-atvorining ravshan modeli sifatida qo'llash qiyin.

Adabiyotlar sharxi. Antropologiya bo'yicha mashhur bir darslik muallifi madaniyatning 11 xil ta'rifini keltirgan; boshqa bir muallifning sharhida esa antropologlar, sotsiologlar, psixologlar va boshqa fan vakillari tomonidan qo'llanilgan 160 ta ta'rif jamlangan. Madaniy antropologiya deyarli madaniyatning barcha jihatlarini insoniyatning barcha jamiyatlarida bir xil tarzda uchramasligini ta'kidlaydi. Demak, madaniy omillarni universal qonunlar shaklida tizimlashtirib bo'lmaydi, ularni talqin qilishning yagona yo'li har bir madaniyatning murakkabligi va xilma-xilligini etnografik usulda tahlil qilishdir. Buni Klifford Girts "quyuq tavsif" deb ataydi.

Ko'pgina iqtisodchilar nazarida madaniyat allaqachon o'ziga xos "qoldiq toifa"ga, ya'ni qabul qilingan inson xulqi nazariyalari izohlay olmaydigan barcha narsalar tushadigan "Turli xil" rukniga aylangan. Shunga qaramay, madaniyatning o'ziga xos "moslashuvchan" ratsionalligi mavjud garchi uni ajratib ko'rsatish oson bo'lmas-da. Biroq, avvalo, men ushbu kitob davomida "madaniyat" termini qanday ma'noda qo'llanishi haqida aytib o'tishim kerak [1].

Madaniy antropologiya va sotsiologiya madaniyatni o'zlari "ijtimoiy tuzilma" deb ataydigan tushunchadan farqlaydi. Bu ma'noda madaniyat ma'no, ramz, qadriyat va g'oyalardan iborat bo'lib, din va mafkura kabi hodisalarni o'z ichiga oladi. Girtsning ta'rifiga ko'ra, madaniyat bu

“tarixan avloddan avlodga o‘tadigan va ramzlarda mujassam bo‘lgan ma’nolar tizimi; ya’ni insonlar hayot haqidagi bilimlari va unga nisbatan munosabatlarini ifodalaydigan, saqlaydigan va rivojlantiradigan ramziy shakllarda ifodalangan merosiy tasavvurlar tizimi”[2].

Aksincha, “ijtimoiy tuzilma” tushunchasi jamiyat tashkilotining aniq institutlariga masalan, oila, urug‘ (klan), huquqiy tizim yoki millatga nisbatan qo‘llanadi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi konfutsiychilik ta’limoti madaniyatga, real patrilineal (otasoyli) xitoy oilasi esa ijtimoiy tuzilma doirasiga kiradi.

Ushbu kitobda men “madaniyat–ijtimoiy tuzilma” dichotomiyasidan foydalanmayman, chunki ularni bir-biridan ajratish nihoyatda mushkul: bir tomondan qadriyatlar va tasavvurlar, ikkinchi tomondan esa aniq ijtimoiy munosabatlar doimo o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Xitoy oilasining patrilineal bo‘lishi katta darajada konfutsiylik ta’limotining erkaklar ustunligini targ‘ib qilishi va farzandlarni otalarini ulug‘lashga o‘rgatishi bilan bog‘liq. Aksincha, xitoy oilasida ulg‘aygan odam uchun konfutsiylik g‘oyalari juda maqbul va asosli bo‘lib ko‘rinadi[3].

Shu bois men qo‘llaydigan ta’rif madaniyatning ikki jihatini ham qamrab oladi va keng tarqalgan ma’noga yaqinlashadi: madaniyat bu meros bo‘lib qolgan axloqiy ko‘nikma yoki odat (hobbiy). Axloqiy ko‘nikma muayyan tasavvur yoki qadriyat shaklida namoyon bo‘lishi mumkin masalan, cho‘chqaning go’shti “nopok” hisoblanishi yoki sigirning “muqaddas hayvon” deb e’tirof etilishi kabi; yoki amalda amal qilinadigan ijtimoiy an’ana shaklida bo‘lishi mumkin masalan, yaponlar orasida katta o‘g‘il otaning butun mulkini meros qilib olishi odati.

Shu nuqtai nazardan madaniyatni, ehtimol, uni nimadan iborat emasligi orqali aniqlash osonroqdir. Avvalo, u ratsional tanlov emas ya’ni odamni foydani maksimal darajada oshirishga intiluvchi ratsional mavjudot sifatida tasvirlovchi iqtisodiy kontsepsiyaning asosida yotuvchi narsa emas. “Ratsional tanlov”[4] deganda men, birinchi navbatda, ratsional maqsadlarni emas, balki ratsional vositalarni ya’ni ma’lum bir maqsadga erishishning muqobil yo‘llarini hisobga olgan holda eng maqbul yo‘lni tanlashni tushunaman. Madaniyat tomonidan belgilanuvchi qarorlar aslida odat bilan belgilanadigan qarorlardir. Xitoylik odam ovqatni tayoqchalar yordamida yeydi, chunki u pichoq va sanchqini solishtirib, ular xitoy taomlari uchun unchalik qulay emas, degan xulosaga kelgani uchun emas, balki barcha xitoylar shunday qilgani uchundir. Hindlarning sigirlarga sig‘inishida ham mamlakat aholisi sonining yarmiga teng iqtisodiy jihatdan foydasiz qoramollar podasini hanuzgacha asrab kelishida qandaydir ratsional tanlovni topish mushkul. Shunga qaramay, hindlar ushbu odatdan voz kechmoqchi emaslar.

Muhokama va natijalar. Madaniyatni tashkil etuvchi asosiy ko‘nikmalar odamning ovqatlanish yoki sochini tarash uslublaridan uncha bog‘liq emas. Ular asosan jamiyat o‘z a’zolarining xulq-atvorini tartibga soladigan axloqiy me’yorlarda mujassam bo‘ladi Fridrix Nitsshe bir paytlar buni “yaxshilik va yomonlik tili” deb atagan edi. Ular qanchalik rang-barang

bo'lmasin, deyarli hech bir madaniyatni inson tabiatining qo'pol egoizmini muayyan yozilmagan axloqiy qoidalar bilan chegaralashga intilmaydigan madaniyat sifatida topa olmaymiz. Albatta, bizning axloqiy kodeksimiz "mavjud alternativlarni" solishtirgan holda puxta o'ylangan ratsional tanlovga mos keladi, deb aytishimiz mumkin. Ammo yer yuzidagi aholining katta qismi bunday qilmaydi. Jamiyat qoidalariga amal qilishni odamlar oilada, do'stlar davrasida, qo'shnilar orasida va nihoyat maktabda o'tadigan oddiy ijtimoiy moslashuv jarayonida o'rganadilar [5].

Amerika telekanallaridan birida namoyish etilgan mashina reklamasi bunga yorqin misol bo'la oladi: unda maktab sinfida vahimali muhitda o'tirgan bir qiz tasvirlanadi, o'qituvchining jiddiy va monoton ovozi esa takror-takror: "Chiziqlardan chiqma", deya uqtiradi. Keyingi sahnada esa o'sha qiz ulg'aygan, endi u shaxsiy kabriolet mashinasida hayajon bilan yo'l chiziqlaridan ataylab chiqib, dalalar bo'ylab haydab ketadi. Rolik Osiyoda suratga olingan bo'lganida, unda mehribon o'qituvchi qizga rasmni chiziqlardan chiqmasdan ehtiyotkorlik bilan bo'yashni o'rgatayotgani tasvirlangan bo'lardi; vaqt o'tib, qiz buni juda tirishqoqlik bilan bajargan bo'lardi va unga "Avtoritetni hurmat qil" degan yozuvli mashina sovg'a qilinardi. Har ikki holatda ham axloqiy saboq ratsional argument orqali emas, balki atrofdagi tasvirlar, ko'nikmalar va fikrlar orqali singdiriladi.

Axloqiy fazilat va odat o'rtasidagi yaqin bog'liqlik "xarakter" tushunchasida ayniqsa aniq ko'rinadi. Har qanday odam ma'lum vaziyatda nima qilish kerakligini tushunishi mumkin, ammo "xarakterli" odamgina og'ir yoki oldindan kutilmagan sharoitlarda ham shu narsani bajara oladi. Aristotelning ta'kidlashicha, intellektual fazilatdan farqli ravishda, "axloqiy fazilat (ethike) asosan odatdan (ethos) kelib chiqadi; shu sababli u o'z nomini ham 'etos'dan olgan". U yana shunday deydi: "Bir xil harakatlarning takrorlanishi tegishli axloqiy sifatlarni shakllantiradi... Shuning uchun nimaga yoshligidan odatlanish arziyas emas, balki nihoyatda muhim, balki hammasi shunga bog'liq"[6].

Madaniy jihatidan shakllangan xulq-atvorning asosiy institutsional manbai tarixiy dinlar va axloqiy tizimlardir (masalan, konfutsiychilik). Axloqiy tizim har doim ma'lum bir axloqiy hamjamiyatni yaratadi, chunki u "yaxshilik va yomonlik tili"ni shakllantiradi. Har qanday axloqiy hamjamiyat, qaysi qoidalariga amal qilishidan qat'i nazar, kamida uning a'zolari o'rtasida ishonchning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Biroq ba'zi axloqiy tizimlar halollik, rahmdillik, jamiyatga mehr kabi fazilatlarni o'z ichiga olganlari kengroq doirada ham ishonchni mustahkamlashi mumkin. Veberning fikricha, puritanlik aynan shunday bo'lgan: u oiladan tashqarida ham yuqori axloqiy mas'uliyat talab qilgan va aynan shu keng iqtisodiy ishonchning shakllanishiga olib kelgan. Uningcha, iqtisodiy hayot uchun muhim bo'lgan ishonch hech qachon ratsional tanlov natijasi bo'lmagan, balki diniy odat mahsuli bo'lgan.

Madaniyatni ratsional tanlov emas, odat sifatida ko‘rish uni irratsional qilmaydi u faqat qaror qabul qilishda qo‘llaniladigan vositalar nuqtai nazaridan ratsionallikdan farq qiladi. Madaniy xatti-harakat juda ham ratsional bo‘lishi mumkin. Masalan, muloyim nutq va hurmat bildiruvchi maxsus murojaatlar suhbatdoshning ijtimoiy maqomi haqida muhim axborot berishi mumkin. Biz har kuni ongli ravishda emas, balki madaniy ko‘nikmalar orqali qarorlar qabul qilamiz. Restoranda hisobni to‘lamay chiqib ketish kerakmi, notanish odam bilan muloyim bo‘lish kerakmi, tasodifan sizga yetib kelgan xatni ochish kerakmi bularning barchasi ko‘p suyunchi talab qiladigan ratsional tanlov emas, balki odatga asoslanadi. Ko‘pchilik odamlar halollikning ma’lum minimal darajasiga odatlangandir[7].

Shu kabi, siyosiy qarorlar ham ko‘pincha ratsional tahlil natijasi emas, balki umumiy siyosiy e‘tiqodlar liberal yoki konservativ kayfiyatlarga asoslanadi. Masalan, atom energiyasi yoki OITS kasalligi bilan bog‘liq xavfning nisbiy darajasini ko‘pchilik aynan ana shu siyosiy nuqtai nazardan baholaydi[8].

Zamonaviy iqtisodchilar ratsional maqsad qo‘yishni odatda manfaat maksimalizatsiyasi bilan tenglashtiradilar. Bu mezon bo‘yicha ko‘plab an‘anaviy madaniyatlar ratsional emasdek ko‘rinadi. Masalan, buddistlar hayotning maqsadini moddiy boylikka ega bo‘lishda emas, balki istaklardan butunlay voz kechib, shaxsiylikni yo‘q qilishda ko‘radilar. Faqat iqtisodiy maqsadlarni ratsional maqsad sifatida tan olgan yondashuv katta intellektual kibrni talab qiladi va G‘arbning o‘z an‘analaridagi bebaho falsafiy va axloqiy merosning katta qismini rad etishga olib keladi.

Xuddi shu tarzda, boshqa madaniyatlarga irratsionalizm tamg‘asini qo‘yish G‘arbda keng tarqalgan fikrlash usulidir. Masalan, 1978-yil inqilobidan keyin Eronning G‘arbdan uzilib, diniy ekspansiya yo‘lini tanlaganini ko‘pchilar irratsional deb atagan. Ammo voqealarga chuqurroq nazar tashlasak, Eron o‘z maqsadlariga eng samarali erishish uchun eng maqbul vositalarni tanlaganini ko‘ramiz. G‘arbliliklar irratsional deb bilgan narsa aslida bosh maqsadlarning o‘zgacha bo‘lganidadir ular iqtisodiy emas, balki diniy edi.

Aksincha, tarixiy odat sifatida shakllangan irratsional ko‘rinuvchi madaniy an‘analar oxir-oqibat sof iqtisodiy samaradorlikka xizmat qilishi ham mumkin. Veberning “Protestant etikasi va kapitalizm ruhi” asarining markaziy g‘oyasi shu edi: dastlab faqat Xudo sharafiga mehnat qilgan puritanlar halollik, tejamkorlik kabi fazilatlarni shakllantirdilar va ular kapital jamg‘arish uchun nihoyatda qulay bo‘lib chiqdi. Ushbu kitobning asosiy g‘oyasi ham o‘xshashdir: odamlarning o‘z-o‘zidan birlashuvchanligi kabi axloqiy ko‘nikmalar tashkilot shakllarini takomillashtirish va boylik yaratish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Turli axloqiy ko‘nikmalar jamiyatda turlicha iqtisodiy tuzilmalar paydo bo‘lishiga olib keladi. Demak, eng yaxshi iqtisodiy foyda ko‘ruvchilar ham har doim ratsional bo‘lavermaydi, va an‘anaviy axloqiy fazilatlarni ongli ravishda emas, odat bo‘lgani uchun bajaradigan odamlar ham yaxshi xo‘jalik yurituvchilar bo‘lishi mumkin.

Madaniyatni axloqiy ko'nikma sifatida talqin qilish "kulturaraviy o'zgaruvchilar"ni o'lchashni qiyinlashtiradi. Bu, xususan, sotsiologiyaning asosiy vositasi bo'lgan jamoatchilik fikrini o'rganishga ham taalluqlidir. Bu usulda respondentlarning qadriyatlarini o'lchash uchun savollar beriladi. Ammo bunday o'lehovlar fikr va ko'nikma o'rtasidagi farqni ajrata olmaydi. Masalan, turli tadqiqotlarda davlat yordamiga muhtoj amerikaliklarning mehnat, tejamkorlik va ijtimoiy yordamga munosabati o'rta sinfnikidan farq qilmasligi aniqlangan. Lekin "mehnatga ijobiy munosabat" bilan har kuni ertalab vaqtida turib, zerikarli bo'lsa ham doimiy mehnat qilish odati turli narsalardir. Odamlar yordamdan xalos bo'lishni xohlashlari shubhasiz; ammo ular bunga yetarli ko'nikmaga egami buni so'rovnomalar ko'rsatib bera olmaydi. AQShda qashshoqlik sabablarini muhokama qilgan ko'plab bahslar aynan mana shu ikkilik atrofida aylanadi: masala iqtisodiy imkoniyatlarning yo'qligimi, yoki "qashshoqlik madaniyati" o'smirlar homiladorligi, giyohvandlik kabi ijtimoiy disfunktsiyalar majmuasimi?

Agar madaniyatni ko'nikma, ayniqsa axloqiy ko'nikma sifatida ko'rsak, kulturaraviy va ratsional tanlov o'rtasidagi chiziq baribir aniq bo'lmaydi. Ratsional tanlov mahsuli vaqt o'tishi bilan madaniyatga aylanib ketishi mumkin. Masalan, Amerika jamiyatining demokratiya va bozor iqtisodiga bo'lgan afzalligi ko'pincha ideologik emas, balki madaniy hodisa sifatida talqin qilinadi. Amerikaliklar demokratiyaning afzalliklarini ratsional tarzda asoslab bera olishsa-da, jamiyatning katta qismi bu qadriyatlarni oddiy ijtimoiy ko'nikma sifatida o'zlashtiradi.

Vahti kelib siyosiy qarorlar madaniy xususiyatga aylanib ketishi tarixda tez-tez uchraydi. Masalan, XVI–XVII asrlarda Angliya va Fransiya bo'lgan siyosiy mojarolar turli yo'nalishda yakunlandi: Angliyada monarxiya cheklab qo'yildi va oxir-oqibat parlament demokratiyasiga asos bo'ldi; Fransiya esa monarxiya g'olib chiqib, markazlashgan davlatni shakllantirdi. Bu tarixiy hodisalar keyingi siyosiy madaniyatlarning shakllanishiga chuqur ta'sir ko'rsatdi: fransuzlar markaziy hokimiyatga suyanadigan, inglizlar esa o'zini-o'zi boshqarishga moyil bo'lgan jamiyatga aylanishdi.

Shu bilan birga, dastlab siyosiy tanlov bo'lib ko'ringan qarorlar ham aslida madaniy ildizga ega bo'lishi mumkin. Masalan, Fransiya 1958-yilda qabul qilingan markazlashgan prezidentlik konstitutsiyasi siyosiy zarurat Jazoir inqirozining oqibati bo'lsa-da, fransuz siyosiy madaniyatining chuqur ildizlariga mos kelgan edi[9].

Shunga qaramay, asrning ikkinchi yarmi yakuniga kelib, katolik madaniyati ulkan o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Cherkov o'zining rasmiy bayonotlarida demokratiya bilan ham, ma'lum istisnalar bilan bo'lsa-da, kapitalizm bilan ham yarasha oldi. 1974–1989-yillar oralig'ida shakllangan yangi demokratik tuzumlarning aksariyati aynan katolik mamlakatlarida vujudga keldi, ba'zi mamlakatlarda esa katolik cherkovi avtoritarizmga qarshi kurashda muhim rol o'ynadi. Bundan tashqari, 1960-, 1970- va 1980-yillar davomida ayrim davrlarda Ispaniya, Portugaliya,

Italiya, Chili va Argentina kabi katolik mamlakatlarning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari protestant mamlakatlari AQSh va Angliyadagidan yuqori bo'lgan.

Bugun katolik madaniyatining demokratiya va kapitalizm bilan to'la yarashgani haqida qat'iy gapirish mushkul, biroq so'nggi yillarda u sezilarli darajada "protestantlashuv" jarayonini boshdan kechirdi. Natijada protestant va katolik jamiyatlari o'rtasidagi farqlar oldingiga qaraganda ancha kamaydi.

Insonning mohiyatan o'z manfaatini ko'zlovchi mavjudot ekani va u o'z manfaatini iqtisodchilarning ta'kidlashicha ratsional yo'l bilan amalga oshirishi shubhasizdir. Ammo unda yana bir axloqiy qirra mavjud bo'lib, u uni o'ziga o'xshash insonlar oldidagi burchini his etishga undaydi. Ko'p hollarda bu qirra uning shaxsiy manfaatga asoslangan instinkti bilan to'qnash keladi. "Madaniyat" so'zining o'zi anglatganidek, inson hayotidagi eng murakkab axloqiy qoidalar takror, an'ana va ibrat asosida shakllanadi. Bu qoidalar chuqur "moslashuvchan" ratsionallikni o'zida aks ettirishi, iqtisodiy jihatdan ratsional maqsadlarga xizmat qilishi yoki ayrim hollarda tor doiradagi shaxslar o'rtasida ratsional kelishuv natijasida vujudga kelishi mumkin. Biroq ular avloddan avlodga jamiyat hayotining nōratsional ko'nikmalari sifatida o'tadi.

Aynan mana shu ko'nikmalar inson xulq-atvori hech qachon iqtisodchilarning ta'kidlashicha "shaxsiy foydani yalang'och maksimallashtirish" darajasiga tushirib qo'yilmasligini kafolatlaydi.

Xulosa. Maqoladan kelib chiqadiki, madaniyat inson xulq-atvorining irratsional emas, balki tarixiy shakllangan axloqiy ko'nikmalar tizimi sifatida jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Ratsional tanlovdan farqli ravishda madaniy ko'nikmalar odat, takror va ibrat orqali shakllanadi hamda iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy munosabatlarning barqarorligini ta'minlovchi "axloqiy infratuzilma" vazifasini bajaradi. Diniy an'analar va axloqiy tizimlar jamiyatda ishonchni shakllantirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishi, jamiyatdagi institutlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiy yoki siyosiy maqsad sifatida ratsional bo'lgan qarorlar ham vaqt o'tishi bilan madaniy me'yorlarga aylanishi tabiiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Demak, madaniyat va iqtisodiyot o'rtasida qat'iy chegara yo'q: madaniy qadriyatlar iqtisodiy tizimni shakllantiradi, iqtisodiy tizim esa vaqt o'tishi bilan o'sha madaniyatning bir bo'lagiga aylanadi. Ijtimoiy-axloqiy ko'nikmalar jamiyatlarda turlicha shakllangan bo'lsa-da, ular iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy institutlar samaradorligi va siyosiy barqarorlikning ajralmas omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Weber M. Klassik sotsiologiya .
2. Geertz C. Madaniyatlarning talqini.
3. Aristotle. Nikomax axloqi.
4. Fukuyama F. Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity.

5. Durkheim E. Jamiyatsdagi me'yorlar va axloqiy tuzilma nazariyasi.
6. Parsons T. Social System.
7. Bellah R. Religiya va modern jamiyat.
8. Putnam R. Bowling Alone: Social Capital and Community Decline.
9. Inglehart R., Welzel C. Cultural Evolution and Modernization Theory.